

**O‘ZBEKISTONDA MUQOBIL ENERGIYAGA O‘TISHNING
AFZALLIKLARI**

Maxammadiyev Asadulla Sharofiddinovich

Tabiiy fanlar fakulteti

Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrasida o‘qituvchisi

Xudoyberdiyeva Sarvinoz Abdurasul qizi

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishi talabasi

Abdukarimova Mahliyo Davronbek qizi

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi, bozor munosabatlariga o‘tish, agrosanoat tarmoqlarida energetik resurslarini tejaydigan kompleks texnologiyalarni qo‘llash, yoqilg‘i manbalarini tejash.*

Kalit so‘zlar: *muqobil energiya, iqtisodiyot, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, ekologik muammolar, yashil iqtisodiyot, energetika.*

Abstract: *Uzbekistan's economic development, transition to market relations, application of complex technologies that save energy resources in agro-industrial sectors, saving fuel sources.*


Key words: *alternative energy, economy, solar energy, wind energy, ecological problems, green economy, energy.*

Hozirgi vaqtda olinadigan energiya, asosan, qayta tiklanmaydigan energiya manbalari hisobiga olinadi. Bugungi kunda tabiiy yoq‘ilg‘i ishlatish miqdori dunyo bo‘yicha 12 milliard tonna neft ekvivalentiga teng. Bu esa har bir kishiga taxminan 2 tonna yoqilg‘i to‘g‘ri keladi, deganidir. Ma‘lumotlarga qaraganda, so‘nggi 40 yil davomida butun insoniyat tarixi mobaynida qazib olingan organik yoqilg‘idan ham ko‘p yoqilg‘i iste‘mol uchun o‘zlashtirilgan. Bu esa ular zahirasining tez kamayib ketishiga sabab bo‘lmoqda. 2050-yilga borib aholi sonining 9-10 milliard kishiga yetishi energiyaga bo‘lgan ehtiyojning 3 baravar ortishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan shuni aytish mumkinki, mavjud energiya manbalaridan oqilona foydalanish maqsadida energetika tizimida muqobil energiya manbalari ulushini oshirishni talab etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 1-martdagi PF-4512 raqamli «Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida «Quyosh energiyasidan amalda foydalanish uchun O'zbekistonda yaratilgan shart-sharoit va mavjud imkoniyatlar mazkur mintaqadan bu sohadagi ilg'or texnologiyalarni nafaqat respublikamizda, balki butun O'rta Osiyoda tajriba tariqasida joriy etish maydoni sifatida foydalanishga asos bo'lib xizmat qiladi», – degan fikr bilan birga, muqobil energiya manbalari – quyosh, shamol va biogazdan foydalanish bo'yicha respublikamizda yetarlicha ilmiy-texnik salohiyat va tajribalar mavjudligi 4 takidlab o'tilgan.

Yoqilg'ining organik turlaridan foydalanuvchi elektr va issiqlik stansiyalaridan, dvigatellardan chiqayotgan zararli gazlar tufayli atrof-muhit jiddiy talofat ko'rmoqda. Negaki, haroratning ko'tarilish jarayonlari atmosferaga yoqilg'ining organik turlaridan foydalanuvchi issiqlik elektr stantsiyalaridan chiqayotgan gaz chiqindilari bilan bog'liqdir.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilda energetika sohasida (transport, issiqlik ishlab chiqarish, sanoat, qurilish, uy va korxonalarni yoritish va isitish uchun) dunyo bo'yicha atmosferaga 76 foiz tashlanmalar aniqlangan. Uning 68 foizi 10 ta



1-chizma. Tabiatdagi energiya turlari

mamlakat hissasiga to'g'ri keladi - Xitoy (26,1 foiz), AQSh (12,67 foiz), Yevroittifoq (7,52 foiz), Hindiston (7,08 foiz) va Rossiya (5,36 foiz).

Elektr energiyaning asosiy qismi foydali qazilmalarning yoqilishidan olinadi (ko'mir, tabiiy gaz, neft, slanets, torf). Xalqaro energetika agentligi (XEA)ning xabariga ko'ra, 2021 yilda jami elektr energiyaning 37 foizi ko'mirdan, 23,5 foizi esa tabiiy gaz yoqilishidan ishlab chiqarilgan. Worldometer saytining xabariga ko'ra, dunyoda 200 milliard tonnadan kam neft zaxirasi qolgan. Bu 47 yilga yetadi, xolos.

Betakror tabiatimiz bizga yil davomida «yashil» energiya olishimiz uchun ulkan imkoniyatni tuhfa etadi. Ayniqsa, quyosh, shamol va suv – ekologik toza energiya manbalaridan foydalanish keyingi yillarda ancha dolzarb tus olgan ekologik muammolar hamda aholini energiya bilan to'liq ta'minlash masalalariga munosib yechim bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Ekologiya va atrofmuhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. 21-aprel 2017-yil, Toshkent.
2. Qayumov A.A., Raxmonov R.N., Egamberdieva L.SH., Xamroqulov J.H. Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish. – T.: "Iqtisodiyot", 2014.
3. Otaboev Sh., Nabiev M. Inson va biosfera .-Toshkent, «O'qituvchi», 1995.
4. Sultonov R.S. Ekologiya va atrof- muhitni muhofaza qilish asoslari. T. Musiqa. 2007.
5. Surxondaryo viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi statistik ma'lumotlari.
6. t.me/ecogov.uz